ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Begmatova Sevara Ergashali qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti magistratura yo‘nalishi, 1-kurs

sevara0315@icloud.com +998946660315

HOTAMI TOY OBRAZINING TARIXIY VA ADABIY MANBALARDAGI TALQINI

Annotatsiya: Hotami Toy sharq xalqlari tarixiy va adabiy merosida alohida o‘rin tutuvchi siymolardan biridir. U saxovat, oliyjanoblik va insonparvarlik timsoli sifatida asrlar davomida xalq og‘zaki ijodi hamda yozma adabiyotda keng yoritib kelinadi. Mazkur maqolaning maqsadi Hotam Toy obrazining tarixiy manbalarda aks etishi, adabiy talqini hamda uning tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Hotam Toy, saxovat, tarixiy manbalar, adabiy talqin, rivoyatlar, badiiy obraz, sharq adabiyoti, tarbiyaviy ahamiyat, insonparvarlik, og‘zaki ijod.

Abstract: Hatim al-Tai is one of the prominent figures who occupies a significant place in the historical and literary heritage of Eastern peoples. He has been widely depicted for centuries in both oral folklore and written literature as a symbol of generosity, nobility, and humanism. The aim of this article is to analyze the representation of Hatim al-Tai in historical sources, its literary interpretation, and its educational significance.

Keywords: Hatim al-Tai, generosity, historical sources, literary interpretation, legends, artistic image, Eastern literature, educational significance, humanism, oral tradition.

O‘zbek adabiyoti va folklori rivojiga o‘zaro adabiy aloqalar va ta’sirlar muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, O‘rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi natijasida diniy manbalar bilan bir qatorda arab tilidagi adabiy va ma’rifiy asarlar ham keng yoyila boshlagan. O‘zbek folklori va yozma adabiyotidagi Luqmon, Xizr, Iskandar, Od, Xorut va Morut singari ko‘pgina obrazlar bilan bog‘liq badiiy talqinlar hamda epik syujetlarning tarixiy ildizlari bevosita arab xalq ijodiga borib taqaladi. Mamlakatimizda mumtoz adabiyotimizga aloqador fors-tojik va arab tilidagi juda ko‘p manbalar chop etilib, ilmiy o‘rganilayotgan bugungi kunda obrazlarning tarixiy asoslari va hikoyatlar mazmun-mohiyati jihatidan o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

Sharq adabiyotiga xos No‘shiravon, Jamshid, Xorun, Luqmon, Iskandar, Sulaymon, Hotami Toy kabi an’anaviy obrazlar mavjudki, ularning har qaysisi ma’lum bir umuminsoniy fazilatlarni ifodalash va targ‘ib qilish uchun ximat qiladi. Hotami Toy shaxsi ham shular jumlasidandir. Ko‘pincha, saxovatli, qo‘li ochiq kishilarga nisbatan ana shu ismning qisqargan shakli “hotamtoy” iborasi ishlatiladi. Muruvvatpeshaligi bilan shuhrat qozongan Hotami Toydan qolgan nom bora-bora mashhur sifatga aylanib ketgan. Bu ism arabcha bo‘lib, “yo‘lboshchi”, “boshliq” kabi ma’nolarni bildiradi. Lug‘atlarda, asosan, arab tilining izohli lug‘atlarida “hotam” so‘zi “qarorlarida qat’iylatli, mas’uliyatli va o‘z so‘ziga sodiq” deb izohlanadi **[3:126]**. Bundan tashqari, ko‘plab izohli lug‘atlarda Hotam at-Tayning ramziy shaxsiga asoslangan “Hotam” so‘zi “saxiylik va oliyjanoblik” deb talqin qilinadi.

Tarixiy manbalarga ko‘ra, Hotami Toy (to‘liq ismi — Abu Safona Hotam ibn Abdulloh ibn Sa’di Toy) (taxminan VI asr oxiri — VII asr boshlari) Arabiston yarimorolida yashagan va Toy qabilasiga mansub bo‘lgan. Yamandagi Toy qabilasining boshlig‘i, mashhur lashkarboshi va

shoir bo‘lgan. Adolati, insofi, saxiyligi va ochiqko‘ngilligi bilan dastlab atrofdagi qabilalar, keyin butun Arabiston yarimoroli va Sharq xalqlari orasida Hotami Toy — Toy qabilasidan bo‘lgan Hotam nomi bilan shuhrat qozongan. Uning saxovat va himmatiga qoyil qolgan Muhammad alayhissalom ham Toy sharofatidan uning avlodini e’zozda tutishni buyurganlar **[6:905]**.

Hotamtoy mislsiz saxiyligi bilan tarixda nom qoldirgan mashxur shaxs bo‘lib, u Payg‘ambarimiz alayhissalom davrlariga yetib kelmagan, balki johiliyat davrida islomdan benasib holda dunyodan o‘tgan **[4:58]**. Bundan ma’lum bo‘ladiki, u islomning asosiy ustuni bo‘lgan sadaqa va bor-yo‘g‘ini ehson qilish kabi hukmlardan boxabar bo‘lmagan.

Arablarning kahqon urug‘i qadimda Yaman yerlaridan Arabiston yarimorolining turli tomonlariga ko‘chib ketishadi. O‘shanda rumliklarning siquvi va dengiz savdo yo‘liga egalik qilishlari, Misr va Shomni bosib olganlaridan so‘ng quruqlik yo‘lini ham yo‘qqa chiqarganlari urug‘ning tijoratiga katta zarar keltirgan edi. Toy qabilasi Kahqonning mashhur urug‘laridan hisoblanib, Yaman yerlaridan shimol tarafga yurib, “Ajo” va “Salmo” nomli ikki tog‘ga kelib joylashishgan, shu bois bu tog‘lar keyinchalik “Toy tog‘lari” nomi bilan tanilgan **[2:11–12]**.

Hotamning tarjimayi holi va hayotining ba’zi tafsilotlarini tasvirlashda ko‘plab yillar davomida yozilgan adabiy va tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlarning mualliflari Abulfaraj al-Isfahoniyning “Kitob al-Aganiy” ma’lumotlariga asoslangan. Unda Hotamning she’r yozganlari, Navvar va Muoviya ismli ayollari bo‘lganligi, Saffona va Adiy ismli farzandlari bo‘lganligi, saxiylik unga onameros ekanligi, uning bu xislati keyinchalik qizi Saffonaga o‘tganligi to‘g‘risidagi tarixiy ma’lumotlar o‘z aksini topgan **[1:73]**.

Islom xalifaligining dastlabki asrlariga oid arab manbalarida muhim o‘rin egallagan Hotami Toy haqidagi ma’lumotlar keyingi davr mualliflarining tarixiy, axloqiy, adabiy asarlarida bu obraz to‘g‘risidagi afsonalar va hikoyalarning paydo bo‘lishi va keng tarqalishiga turtki bo‘ldi.

Sayyid Qosimiyning “Majma’ ul-axbor” dostonida ham Hotami Toy haqidagi hikoya keltiriladi. Asarda muallif, avvalo, saxovat va karam haqida ibratli g‘oyani ilgari suradi, so‘ngra uni dalillovchi hikoyat orqali asoslaydi. Ushbu g‘oyaga ko‘ra, kimga saxovat fazilati azaldan nasib etgan bo‘lsa, u o‘zida mavjud barcha ne’matlarni kambag‘al va muhtoj insonlarga ulashishni odat qilishi lozim.

Shoirning ta’kidlashicha, saxovatni hayotiy mezon sifatida qabul qilgan inson chinakam baxt va saodatga erishadi. Bunday shaxs ma’naviy jihatdan yuksak darajaga ko‘tarilib, ichki olamida yetuklikka erishadi, garchi tashqi tomondan faqir ko‘rinsa ham.

Mazkur fikrlarni mustahkamlash maqsadida doston tarkibida Yaman podshohi va Hotami Toy o‘rtasidagi voqea bayon etiladi. Hikoyaga ko‘ra, Yaman podshohi o‘z xazinasidagi boyliklarni xalqqa tarqatib, saxovatli hukmdor sifatida tanilgan edi. Biroq u o‘zidan ham saxiyroq inson – Hotami Toy haqida eshitgach, g‘azablanadi va uni yo‘q qilish uchun bir yigitni yuboradi.

Yigit Toy qabilasiga yetib kelgach, bir kishi tomonidan mehmondorchilik bilan kutib olinadi. Mezbon undan safar maqsadini so‘rab, agar yordam kerak bo‘lsa, jonini ayamagan holda xizmat qilishga tayyorligini bildiradi. Shunda yigit o‘z vazifasini yashirmay, Hotami Toyni o‘ldirish uchun kelganini aytadi.

Aslida, uni mehmon qilgan kishi aynan Hotami Toyning o‘zi edi. Shunga qaramay, u o‘z saxovat va muruvvat prinsiplariga sodiq qoladi. U mehmoniga o‘z jonini ham ayamagan holda, agar niyati shu bo‘lsa, boshini kesib ketishini aytadi. Hatto bu ishni tezroq bajarishni maslahat beradi, aks holda odamlar bilib qolsa, yigitga zarar yetishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Hotami Toyning bu darajadagi oliyjanobligi yigitni chuqur ta’sirlantiradi. U uning saxovatda tengsiz ekanini tan olib, o‘z yurtiga qaytadi va bo‘lgan voqeani podshohga yetkazadi. Yaman podshohi esa qilgan ishidan pushaymon bo‘lib, Hotami Toyga nisbatan hurmat va ezgu tilaklar bildiradi.

XV asrda temuriylar hukmronligi davrida yashab ijod etgan ijodkor Husayn Voiz Koshifiy Hotami Toy shaxsiyati haqida “Risolaiy Hotamiya” asarini yaratdi. Shuningdek, uning qalamiga mansub “Axloqi Muhsiniy” asarda ham bu obrazga atroficha to‘xtalingan. Muallif “Axloqi Muhsiniy” asarning “Judu saxovat va ehson bobida” deb nomlangan 21-bobida Hotami Toyning saxovati to‘g‘risida quyidagi misralarni keltiradi:

Hotam Toiy jahondan ketti, lekin to abad,

Yaxshi avsofi saho ahli aro qoldi sanad.

Abru dil aning judidin erdi sharmsor,

Himmati olida olam molig‘a yo‘q e’tibor. **[5:38]**

Mazkur asarda keltirilishicha, Hotamning mardligi ovozasi Arabistondan Yaman mamlakatigacha yetib boribdi. Saxovatining shuhrati Shom mamlakati, Rum viloyatigacha yetadi. Har biri o‘zicha saxovat da’vosini qilib yurgan Yaman, Shom podshohlari va Rum qaysarining unga adovati paydo bo‘ladi. Ularning har biri saxovat yo‘lida Hotam bilan bahslashmoqchi bo‘ladi.

Birinchi bo‘lib, Shom podshohi Hotamni sinash maqsadida yuz bosh qizil yungli qora ko‘z tuya so‘rab kishi yuboradi. Bu paytda shunday rangli tuya Hotam mollari ichida yo‘q edi. Hotam mulozimlarini yig‘ib, “Arab qabilalariga boringlar, kimda kim bunday tuyani Hotam huzuriga olib kelsa, ikki barobar bahosiga oladi, yana u kishiga yo‘l qiyinchiliklari uchun in’om hadya qiladi deb aytinglar” deya buyruq beradi. Shu yo‘l bilan so‘ralgan yuz bosh tuyani qarzga olib Shom podshohiga yuboradi. Bu holatdan hayratga tushgan podsho tuyalarga Misr va Shomning qimmatbaho matolaridan yuklab, Hotamga yuboradi. Bularni olib borganda, kimki menga tuya sotgan bo‘lsa, o‘z tuyalarini tanib ustidagi yuklari bilan olsinlar deb buyuradi. Tuya egalari ularni olib ketadi. Bu xabar Shom mamlakatiga yetgach, podsho Hotamning saxovat va himmatiga qoyil qoladi.

Sahoye Hotamkim shuhrat olmish,

Degandek rostdur behuda ermas.

Xiraql nomli Rum qaysari Hotamning saxiyligini tekshirib ko‘rmoqchi bo‘lib, tezlikda shamoldan tez, oqlikda yashin unga o‘zini o‘xshatishdan ibo qiladigan, chaqqonlikda sabo shabbodasi uning gardini ko‘ziga to‘tiyo qiladigan otini so‘raydi. Husain Voiz Koshifiy bu holatni quyidagi qit’a orqali sharhlaydi:

Tilay andin bu yanglig‘ bodponi,

Saxovatpesh etib gar bersa oni.

Solaykim, jud ishida himmati nag‘z,

Va gar, na shuhratidir, po‘sti bemag‘z. **[5:46]**

Shunday deb Rum qaysari o‘z elchisini yuboradi. Hotam xodimlariga mehmonlar uchun ot so‘yishni buyuradi. Mulozimlar otlarning hammasi yaylovda ekanligini, uyda faqatgina o‘sha uchqur ot borligini aytadi, “shu otni so‘yinglar” deb yuboradi Hotam. Ertasi kuni elchilar Run qaysarining nomasini berishadi. Hotam xatning mazmunidan xabardor bo‘lib xomush bo‘ladi. Buni sezgan elchilar “Ey Hotam, agar tulporni berishga shunchalik parishon bo‘lsang biz seni majburlamaymiz” deydi. Agar bu xatning mazmunidan ertaroq ogoh bo‘lganimda u tulporni sizlarga bergan bo‘lardim deydi. Hotam afsus bilan deydi:

Ul ot dersiz oni bod sur’at,

Tunu kun ayladim sizga ziyofat.

Havo behad sovuq erdi yog‘ib qor,

Ki yilqi sort bormoq erdi dushvor.

Yo‘q o‘lg‘och o‘zga ot eshigimda bog‘liq,

Oni ko‘rdim ziyofatga yarog‘liq.

Muruvvatdin emas kim bir zamone,

Gurusna bo‘lg‘ay uyda mehmone.

Ming ot andog‘ agar yo‘q bo‘lsa bo‘lg‘ay,

Ki olam yaxshi otim bilan to‘lg‘ay.

Garchi Rum qaysariga bu ot nasib bo‘lmasa-da, Hotam unga shunga o‘xshash boshqa otni hadya qiladi.

“Axloqi Muhsiniy”da Yaman podshosining Hotamning xayrli ishlariga g‘ayirligi kelib, uni o‘ldirishni buyurgani va bunga javoban Hotam boshini elchining oyoqlari ostiga qo‘yganligi, uning Hotam ekanligini bilgan elchi poyiga tiz cho‘kib uzr so‘raganligi haqidagi rivoyat ham keltirilgan:

Chu ayyor ul zamon Hotamni bildi,

Hurush aylab oyog‘ig‘a yiqildi.

Ayo ey oliy himmat so‘zi totlig‘,

Kechurgilkim sanga bo‘ldimuyotlig‘.

Seningdek yaxshig‘a bo‘lg‘ochbadandesh,

Hijolatdan uribman man jonimg‘anish.

Agarchi tig‘dek erdim bir ofat,

Ki holi qiling‘ong‘a yo‘q mendatoqat.

Sening sorig‘a hargiz tig‘ otmam,

Ki hosho, tig‘kam gul birla otmam.

Bu yanglig‘ uzrdan behad dam urdi,

Yo‘lin tutib Yaman sorig‘a burdi.

Xulosa qilib aytganda, Hotam Toy obrazi nafaqat tarixiy va badiiy jihatdan, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan timsollardan biridir. U orqali saxovat, muruvvat, insonparvarlik va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib etiladi. Mazkur obraz yosh avlodni mehr-oqibatli, boshqalarga befarq bo‘lmagan, yuksak ma’naviyatli insonlar bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Hotam Toy haqidagi rivoyatlar o‘quvchilarda nafaqat axloqiy fazilatlarni rivojlantiradi, balki ularni mustaqil fikrlashga, hayotiy vaziyatlarga to‘g‘ri baho berishga undaydi. Shu jihatdan, ushbu obraz bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan holda, ta’lim-tarbiya jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdumannatova N.A., Hotamitoy obrazi bilan bog‘liq hikoyatlarning tarixiy asosi. Ilmiy axborotnoma 2020. – B 181.
2. Ар-рахик ал-махтум. (Мухрланган жаннат шароби) Сафиюрахмон Муборакфурий. –Тошкент: “Матбаачи” 2022. – 506 б.
3. Давлатзода Н.Д. Формированние и эвалюция художественного образа Хатама в персидского-таджикской литературе (классический период). дисс....канд. филол. наук. – Душанбе, 2019. – 196 с.
4. Qur’oni Karim ma’nolar tarjimasi va tafsiri. Shayx Abdulaziz Mansur. Toshkent: Movarounnahr, 2020. – 255 b.
5. Хусайн Воиз Кошифий. Ахлоқи Мухсиний // нашрга тайерловчилар: М.Аминов, Ф.Хасанов – Т.: Ўзбекистон илмий нашриёти, 2011. 38-б.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 томлик. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002-2006. – 926 б.